

<https://hstryres.uz/journal/index.php/makro>

2025, № 3 (11)

ISSN-3030-3761



ТАРИХИЙ ТАДҚИҚОТЛАР
Илмий журнали

ИСТОРИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
Научный журнал

HISTORICAL RESEARCHES
Scientific journal

ТОШКЕНТ-2025

ТАРИХИЙ ТАДҚИҚОТЛАР
ИСТОРИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
HISTORICAL RESEARCHES

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Юнусова Хуршида Эркиновна
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети

Бош муҳаррир ўринбосори:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief editor:

Шакиров Ильяс Рахимзянович
т.ф.ф.д., (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ
РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ
EDITORIAL BOARD

Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич
тарих фанлари доктори, профессор, Академик
Ўзбекистон Миллий университети
Сулейманов Рустам Хамидович
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Муминов Алишер Гаффарович
Сиёсий фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Зуев Андрей Сергеевич
тарих фанлари доктори, профессор
Новосибирск Давлат университети
Ишанхужаева Замира Райимовна
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Холиқулов Ахмад Баймаҳаматович
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Габриэльян Софья Ивановна
тарих фанлари доктори, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Убайдуллаева Барно Машрабжоновна
тарих фанлари доктори, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Очилдиев Файзулла Бобокулович
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Саидбобоев Зокиржон Абдукаримович
тарих фанлари номзоди, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Азизов Илдар Рафаэлевич
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Бизнес ва тадбиркорлик олий мактаби

Сиддиқов Равшан Бердимуратович
тарих фанлари номзоди, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Тухтабеков Козимбек Азимбекович
тарих фанлари номзоди, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Бабабеков Акбар Давурбаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети
Баҳранов Шерзод Таштурсунович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Жамоат ҳафсизлиги университети
Али Назарова Дилдора Валишеровна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Холиқулова Шахноза Боймуҳамматовна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Навоий Давлат педагогика институти
Нормуродов Дилмурод Раҳматуллаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Абдулаева Нигора Санжаровна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Давлат Жаҳон тиллари университети
Тоғаев Жасур Эркинович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Усаров Умид Абдумавлянович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Эгамбердиева Гузаль Акрамжоновна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети
Эшқувватов Бобир Валикул ўғли
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети

Контакт редакции журнала
Город Ташкент, улица Мирзо Голиба,
Исторический факультет
Национального Университета
Узбекистана имени Мирзо Улугбека
Web: <https://hstryres.uz/journal/>
E-mail: I.Shakirov91@mail.ru
Тел: +998900382203

Contact Editors of journal
Tashkent city, street of Mirzo Golib,
Faculty of history of the National
university of Uzbekistan named after
Mirzo Ulugbek
Web: <https://hstryres.uz/journal/>
E-mail: I.Shakirov91@mail.ru
Phone: +998900382203

МУНДАРИЖА / СОДЕРЖАНИЕ / CONTENT

1. Abdullaev Elbek Abduqahhor o'g'li AMIR TEMURNING 1393 YILGI ERON YURISHI	5
2. Akbarov Ravshan Xalimovich TURKISTONDA JADID MAKTABLARI TARMOG'INING VUJUDGA KELISHIDAGI SHART-SHAROITLAR	13
3. Бобожонов Шавкатжон Улуғбекович “ҚОЗОН ТЎЛДИ” – НАВРЎЗНИНГ БОЎИЙ МАРОСИМИ	21
4. Дусчанов Расулжон Рахимбаевич ЎЗБЕКИСТОН ССР МОЛИЯ ХАЛҚ КОМИССАРЛИГИ БОШҚАРУВ ТИЗИМИ	34
5. Israilov Nodir Rahimjonovich LYUDOVIK XIV NI HAYRATLANTIRGAN SIYMO	41
6. Karimova Nazokat Voxidjon qizi ANTIK DAVR FARG'ONA VODIYSIDA URBANIZATSIYA JARAYONLARINI TARAQQIY ETISHI	47
7. Maxmudova Muazzamxon Sultonmahmudovna AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRI KUTUBXONALARI	53
8. Mo'minov Mironshoh Abdualim o'g'li THE IMPORTANCE OF SUSTAINABILITY: A PATH TO A GREEN FUTURE	61
9. Mubinov Muhammadali Akobirovich BUXORO AMIRLIGI TO'G'RISIDAGI MA'LUMOTLARNING YEVROPA MAMLAKATLARIDA OMMALASHUVI (INGLIZABON MUALLIFLAR ASARLARI ASOSIDA)	70
10. Нишонов Абдурашид Абдурасулович СЕВИНЧХОЖАХОН ХОНАДОНИ ТАРИХИ МЕМУАР АСАРЛАРДА ЁРИТИЛИШИ	84
11. Nishonov Abdurashid Abdurasulovich KELDIMUHAMMAD SULTON HUKMRONLIGI DAVRIDA FARG'ONA VODIYSIDAGI SIYOSIY JARAYONLAR	90
12. Ravshanov O'ktamali Rustam o'g'li BUXORO AMIRLIGI VA ERON MUNOSABATLARI TARIXIDAN	97
13. Raxmanova Odinaxon Ravshanbekovna., Odilov Muhammadqodir Olimjon o'g'li IBN AN-NADIMNING AL-FIHRIST ASARI TARIXIY MANBA SIFATIDA	107
14. Said Irandoust ESTABLISHING WORLD-CLASS RESEARCH UNIVERSITIES	114

Akbarov R. X.

«Jahon tarixi» kafedrası mudiri., PhD

Fargʻona davlat universiteti

akbarovravshan04@mail.com

TURKISTONDA JADID MAKTABLARI TARMOGʻINING VUJUDGA KELISHIDAGI SHART-SHAROITLAR

ANNOTATSIYA

Maqolada Oʻrta Osiyoning rus mustamlakachilik tizimiga kiritilishi natijasida qoloqlik, najot yoʻli sifatida maʼrifatparvarlikning vujudga kelishi, Ismoil Gasprinskiy yaratgan usuli jadid, jadidchilik mohiyati, yangi usul maktablaridagi taʼlim usuli, rus hukumatining jadid maktablariga munosabati, Oʻrta Osiyoda yangi usul maktablarining vujudga kelishi, koʻchmanchi va oʻtroq xalqlar orasida usuli jadid maktablar tizimining paydo boʻlishi kabi masalalar tahlil qilingan.

Kalit soʻzlar: mustamlakachilik tizimi, jadid, yangi usul maktabi, islohot, qadimchi, taʼlim usuli, darslik, milliy oʻzlik, targʻibot.

KIRISH

Asrlar davomida ilm-fan beshigi hisoblangan Movarounnahr Temuriylar davridan keyin oʻz mavqeyini yoʻqotib, taraqqiyot yoʻliga qadam qoʻygan Gʻarb madaniyatiga oʻz oʻrnini boʻshatib berishga majbur boʻldi. Ilmiy kashfiyotlari va ilgʻor qarashlari bilan dunyoga dong taratgan Ibn Sino, Forobiy, Navoiy, Ali Qushchi, Ulugʻbek kabi ulugʻ allomalarni yetishtirgan Turkiston keyingi davrlarda turli davlatlar tomonidan ishgʻol qilindi. Ilm beshiklari hisoblangan madrasalar taqlidchilik va sharhlovchi markazlarga aylanib qoldi. XIX asrda Oʻrta Osiyodagi siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy inqiroz sababli musulmonlarning eng muhim madaniy markazlari Buxoro, Samarqand, Qoʻqon va Xiva kabi shaharlari oldingi mavqeyini yoʻqotib, texnologik va zamonaviy bilim sohalaridagi taraqqiyotdan ortda qoldi.

Albatta, bunday qoloqlik sabablari va ulardan qutulish omillarini izlaganlar boʻlgan. Masalan, XIX asr boshlarida Abdurahmon Oʻttiz Yemeniy, Abdunosir Kursaviy, Shaxobiddin Marjoniy va Qayum Nosiriy kabi bir necha Itil – Volga hududlaridagi maʼrifatparvarlari diniy qarashlarni qaytadan koʻrib chiqish, musulmon olamida maʼrifatparvarlik, yangilanish, taʼlim va ilmiy sohalarida islohot oʻtkazish kabi fikrlarni oʻrtaga tashlab, bu borada tashabbuskor boʻldilar. Bu maʼrifatparvarlarning eng muhim xususiyatlari Gʻarbdagi ilgʻor fikrlarni, rivojlanish va taraqqiyotni shundoq qabul qilmasdan, ularni musulmon anʼanasi ichida topishga harakat qilganlar.

TADQIQOTNING ASOSIY NATIJALARI

Turkistonda esa Abu Tohir, Mir Abdulkarim, Said Mahmud Hakimxon, Muhammad Yoqub, Savdo, Ahmad Donish, Mulla Fozil G'ijduvoni, Mo'minxo'ja Vobkandiy va Mulla Xudoyberdi Boysuniy kabi ma'rifatparvarlar O'rta Osiyoning siyosiy, iqtisodiy va madaniy holatini yoritadigan asarlar yozgan va xonliklardagi salbiy holatlarni tanqid qilganlar. Siyosiy va iqtisodiy jihatdan zaiflashgan o'zbek xonliklari rus, fransuz va inglizlar tahdidi ostida ekanligi, shu sababli yangilanish va islohot o'tkazilishi shart ekanligi, buni barcha soha asosiy bo'lgan ta'limda islohot o'tkazish orqali amalga oshirish mumkinligi, buning uchun avvalo ta'limda islohotning amalga oshirilishi zarurligini ta'kidlaganlar. Faqat bunday harakatlar XIX asrning ikkinchi yarmigacha shikoyat va tanqiddan nariga o'ta olmagan [7. 199-200]. Shuning uchun yuqorida ismlari zikr etilgan shaxslar garchi yangilik yo'lini izlagan bo'lsalar-da, ularni jadidlar safiga qo'shish to'g'ri emas.

“Jadidchilik”ning asosida “jadid” so‘zi yotadi. “Jadid” so‘zining asl ma’nosi yangilik demakdir. U shunchaki “yangi” yoki “yangilik tarafdori” emas, balki “yangi tafakkur”, “yangi inson”, “yangi avlod” singari keng ma’nolarni o‘zida mujassam etadi. Atamaning asl ma’nosi qrimlik Ismoil Gasprinskiy tomonidan boshlangan harakat bilan bog‘liq. Ismoil Gasprinskiy dastlabki usuli jadid maktabini 1884-yil Boqchasaroydagi Qayta Og‘a mahallasida ochgan va o‘zi o‘ylagan maqsadlarini shu yerda yo‘lga qo‘ya boshlagan. 1893-yili opasi Pembe xonim Bolatukova tomonidan qizlar uchun ilk jadid maktabini ochgan. Ta’lim tili turkiycha bo‘lgan va qisqa vaqt ichida o‘qish-yozishni o‘rgatgan usuli jadid maktablarida o‘quvchilar sinflarga ajratish, imtihon, Yevropa umumiy ta’lim tizimi asoslariga ko‘ra o‘qitish dasturlari asosida o‘qitilgan. Shu bilan birga ushbu ta’lim maskanlarida Yevropada bo‘lganidek, darslarda doska, daftar, globus va xaritalar qo‘llanilgan. Uning bu faoliyati qisqa vaqt ichida Qrim, Itil-Ural, Turkiston, Buxoro, Ozarbayjondan tashqari, Usmonlilar sultonligi, Eron va Hindistonga tarqalgan hamda mana shu fikrdagi ma'rifatparvarlar tomonidan qo'llab-quvvatlangan. Natijada turli hududlardan usuli jadid maktablarini o'rganish maqsadida mudarris va mullalar Boqchasaroyga kelganlar [7. 204] Shuning bilan birga, davr talablariga mos bo'lgan zamonaviy tipdagi maktab ochishga muvaffaq bo'lgan [8. 248]. Gasprinskiy maktabida diniy bilimlar bilan birga arifmetika, geografiya, tarix, adabiyot va rus tili fanlarining ham o‘qitilishi, o‘qituvchilarga oylik maosh to‘lanishi, qizlar uchun alohida maktablar ochish va har bir ta’lim saviyasiga mos ravishda darsliklar tayyorlanishi kabi masalalarni ko‘targan. Uning eng muhim ishlaridan biri Yevropa va Turkiyaga yoshlarni ta’lim olish uchun jo‘natishi edi [3. 152].

Gasprinskiyning ta'limda islohot tashabbusi “usuli jadid” nomi bilan mashhur bo'lgan. Rossiya musulmonlari ta'lim tizimida alifboning yangi bir usul tovush

usuli asosida o'rgatilishi bilan bog'liq yangi harakat bo'lgan jadidchilik, Qur'on va boshqa diniy matnlarni mohiyatiga tushunmasdan yodlatishga asoslangan eski usuli (usuli qadimiya)ga alternativ sifatida vujudga kelgan [8. 239].

Ismoil Gasprinskiyning ushbu amaliyoti nihoyatda muvaffaqiyatga erishib, butun musulmon olamida tezlik bilan ommalasha boshladi. Yangi usul maktablarining muvaffaqiyatidan xabar topgan Ichki ishlar vazirligi 1891-yili maxsus vakili Vashkevichni o'rganish maqsadida yuboradi. Lekin bu paytda "usuli jadid" maktablari keng hududga tarqalgan, ya'ni Rossiyaning turli shaharlarida 30 ga yaqin yangi tipdagi maktablar ochilgan, "Xojayi sibyon" darsligi esa 4 ming nusxada tarqalib ketgan edi [4. 22].

Gasprinskiy 1892-yil Turkiston general-gubernatori baron A.B.Vrevskiyga xat yozadi va maktubida musulmon ta'lim tizimini isloh qilish zaruriyatini ta'kidlagan. Rossiya musulmonlarining yarmi yashaydigan Turkiston o'lkasi Gasprinskiy uchun muhim ahamiyatga ega edi [6. 270]. Maktub an'anaviy 6 yillik ibtidoiy maktablarni ikki, hatto bir yarim yilga tushirish, qolgan muddatda rus tilini o'rgatish mumkinligini, faqatgina ularni o'rgatish mahalliy muallimlar qo'liga topshirilishi kerakligi, va ushbu tipdagi maktablarni tashkil etilishida yordam haqida edi. General-gubernator xatni o'rganish maqsadida N.P.Ostroumov va V.P.Nalivkinga topshiradi. Ikkisi ham bunday maktablarni tashkil etilishi o'lkada ruslashtirishga qarshi bo'lishini ta'kidlab, uning taklifini rad etadilar. Maktub esa javobsiz qoldiriladi [4. 22-23].

Jadidchilikning dastlabki namoyondalari harakati ulamolarning katta qismi va xalq tarafidan ham qisman shubha bilan qarshi olingan. Ulamolar azaliy qadriyatlarni saqlash andishasi bilan kiyimlari, ahvol va harakatlari bilan ruslarni eslatib yuboradigan harakat va tushunchalarni bir buzilish sifatida qabul qilgan. Ayniqsa, 1890-yillardan boshlab ta'lim tizimini o'zgartirish tarafdorlari bilan eski usulning (usuli qadim) saqlanishi kerakligini muhofaza qiluvchilar orasidagi kurash tobora kuchayib borgan. Aholi orasida "jadidchi" va "qadimchi" iboralari ushbu kurashning natijasida paydo bo'lgan.

Asosan yoshlar va muallimlardan iborat bo'lgan jadidlar bilan ulamo sinfi orasidagi avlodlar o'rtasidagi kurash ayni paytda manfaatlar to'qnashuvi ham edi. XX asr boshida Misr, Hijoz va Istanbulda ta'lim olgan yoshlar o'z oralarida birlashib, keksa avlodga tegishli maqomlarni asta-sekinlik bilan egallay boshladi. Qadimchilar va jadidlar o'rtasida kurash kuchaygan bir paytda va qadimchilarning bosimi ostida "jadidchi" iborasi salbiy ma'noni bildiruvchi atamaga aylandi. Jadidlar va qadimchilar orasidagi kurash ayniqsa, 1907-yildan keyin yanada kuchaygan. Chunki bu davr Rossiyada hokimiyatga reaksiya kuchlar kelgan, ozchilik millatlarga berilishi kerak bo'lgan huquqlar tobora kamayib bormoqda edi. Musulmonlar tarafidan nashr etilayotgan gazeta va jurnallar bir qismi hukumat

tomonidan berkitilgan, bir qismi esa o'quvchisini topolmay faoliyatini to'xtatishga majbur bo'lgan. Buning natijasida jadidlar yana o'z faoliyatlarini ma'rifatchilik va madaniy masalalarga qaratishga majbur bo'lganlar [5. 151].

Aslida maqsad jamiyatni yangilash ekan, birinchidan, uni yangi avlodgina amalga oshirishi mumkin, yangi avlodni esa yetishtirish kerak. Ikkinchidan, bugungi o'quvchi tarix, geografiya, iqtisod, fizika, kimyo, matematika kabi zamonaviy fanlarni bilishi kerak. So'nggi uch-to'rt asr davomida dunyo taraqqiyot yo'nalishi o'zgarib ketdi. Yevropa bu borada oldinga o'tib oldi. Endilikda Yevropa ilm-fanini o'zlashtirmasdan dunyo bilan tengma-teng yashab bo'lmaydi. Buning uchun esa yevropacha tillarni bilish kerak. Uchinchidan, milliy o'zlik ham saqlanishi kerak. Boshqacha ta'bir bilan aytganda milliy an'analar dunyo hamjamiyati bilan integratsiya qilina olishi kerak. Aynan uchinchi jihat bugungi kunning dolzarb vazifasi hisoblanadi. Qisqacha aytganda, taraqqiyotga erishish uchun yuqoridagi uch jihatning hech birini suiste'mol qilmasdan harakat qilish zarur [4.17-18]. Aks holda muvozanat buziladi. Muvozanatning buzilishi esa yomon oqibatlarga olib kelishi mumkin.

Ana shu tariqa qadimchilar va jadidlar o'rtasidagi o'zaro kurash natijasida O'rta Osiyoda jadid maktablari tarmog'i vujudga kela boshlagan. Turkistondagi dastlabki jadid maktablari vodiyni boy shaharlari (Andijon va Qo'qon)da tatar maktablari, ya'ni yangi usul maktablari ochilgan. Bunday maktablarda har bir o'quvchi uchun oylik to'lov joriy qilingan bo'lib, bir o'quvchi uchun oylik to'lov miqdori 2 – 3 rubl bo'lgan [2. 130]. Aslida Farg'ona vodiysidagi dastlabki jadid maktabi 1897-yili Andijondagi o'zbek boyiga qarashli paxta tozalash zavodi qoshida ochilgan. Ushbu maktab ta'sirida keyinchalik ushbu paxta tozalash zavodi atrofida yana bir necha jadid maktablari ochilgan. Ushbu maktab o'qituvchilari asosan tatarlar bo'lib, maktab asosan zavodda ishlovchi tatar musulmonlari bolalari uchun ochilgan. Lekin tez orada ushbu maktabga o'zbek bolalari ham qatnay boshladilar. Keyinroq o'zbek boylarining o'zlari ham tatar o'qituvchilarini taklif qila boshlaganlar [1. 253]. 1900-yili Qo'qon shahrida Salohiddin domla tarafidan yangi usul maktabi ochilgan va bu maktab mahalliy ma'murlar tomonidan 1910-yili yopilguniga qadar bolalarga bilim bergan.

Turkiston general-gubernatorligida 1900-yili jami besh viloyatda 6000 atrofida maktab va 400 dan ortiq madrasalar faoliyat ko'rsatgan. Albatta, bularning barchasi ham jadid maktablari emas edi. Turkiston o'lkasida 1917-yili 92 ta usuli jadid maktabi faoliyat olib borgan (Sirdaryo viloyatida – 39 ta, Farg'ona viloyatida – 30 ta, Yettisuv viloyatida 18 ta, Samarqand viloyatida 5 ta). Umuman o'lkada yangi usul maktablar tarqalishini uch davrga bo'lish mumkin: 1905-yilgacha sekinlik bilan tarqalgan bo'lsa, 1905–1910-yillarda bunday maktablar soni keskin

ko'payishi kuzatiladi. 1911-yildan keyin Stolipin reaksiyasi bunday maktablar faoliyatining ham sustlashishiga sabab bo'lgan [1. 261].

Jadid maktablari o'troq aholi orasida bo'lganidek, o'lkadagi ko'chmanchilar hayotiga ham kirib keladi. Masalan, qirg'izlar yashaydigan hududlarda ilk jadid maktabi 1898-yili To'qmoq shahrida ochilgan. Ushbu maktabda quyidagi tatar va boshqird muallimlari bolalarga bilim berganlar: G.Rafiqiy, S.Gabdelmanov, N.Mulla-Gazin, Z.Vagapov, K.Miftakov, N.Mamin, M.Bashirov, S.Nadirshin [6. 271].

Turkiston o'lkasida jadidchilik yoyilishida Huseyniya va Galiya madrasalari muhim rol o'ynagan. Jadidchilik Turkistonda Rossiyaning boshqa o'lkalariga nisbatan kech boshlanganiga qaramasdan, qisqa vaqt ichida boshqa hududlardagi jadidchilik bilan bir xil saviyaga ko'tarila olgan.

Ba'zi hududlarda rus ma'murlari yoshlarni yangi usul maktablarida o'qitmaslik uchun o'quvchilarni shaharlardan quvganlar. Masalan, To'qmoq shahrida ma'mur Chavokov qirg'iz yoshlarini buyruq chiqarib, yoshlarni shahardan quvgan. Lekin Shabdon bahodirning iltimosi va Zokir domlaning harakati bilan yoshlar o'qishda davom etganlar. Aksincha, har yili yangi usul maktablarida o'quvchilar soni ko'payib borgan. Maktabda morfologiya bilan birga, tarix, geografiya, arifmetika kabi fanlarni o'qiganlar. Hatto maktabni bitirgach, ustozlari tavsiyasi bilan katta shaharlarga o'qishga ketganlar. Shuning bilan birga yirik shaharlardan o'qituvchi yollab kelganlar ham bo'lgan. Masalan, O'sh uezdi Qurshob volosti boshqaruvchisi Erali mingboshi Toshkentdan jadid G'ulom Zafariyni keltirgan edi [6. 269].

Jadidchilik asta-sekin an'anaviy maktablarni yangi usul maktablariga aylanishiga sabab bo'lgan. Masalan, 1896–1917-yillar davomida Andijonda shakllangan 19 ta usuli jadid maktablarining 4 tasi an'anaviy maktabdan modernizatsiya qilish orqali jadid maktablariga aylangan. Bu maktablarning ba'zilar bir yil, ba'zilar esa bir necha yil faoliyat ko'rsatgan. Maktablardagi 19 o'qituvchining 8 nafari tatar, 11 nafari esa o'zbek bo'lgan. O'zgand shahridagi Mulla Faxriddin va Mulla Rahim o'z maktablarida 1907-yildan boshlab, yangi usulda dars berishga o'tganlar [1. 259].

1910-yili Chuy vodiysida ochilgan yangi usul maktablari soni 16 taga yetgan. Pishpekda 14 (3 tasi qizlar maktabi), Cho'ng Keminda 1 va Toldi Buloqda 1 ta jadid maktablari faoliyat ko'rsatgan. Fozilbek Qosimov O'sh shahrida yana 2 ta jadid maktabi ochilib, 1914-yilga kelganda bu maktablarda 100 nafar talaba ta'lim olgan. Hatto ba'zi madrasalar ham yangi usulda ta'lim berishga o'tgan. Masalan, Keminda 1909-yili ochilgan Shabdan madrasasi yangi usulda dars berishga o'tib, keyinchalik uni Qur'onni yodlagan hofizlar yetishib chiqqan. 1909-yil 20-yanvar Qorako'l shahrida tatarlar tomonidan ochilgan maktabga Gasprinskiy nomini

beradilar. Ba'zilar ushbu maktab shaxsan Gasprinskiy tomonidan ochilgan deb da'vo qilsalar-da, buni isbotlovchi dalillar ma'lum emas. Gasprinskiy 1908-yili Buxoroga kelganida mahalliy ma'rifatparvarlar bilan birgalikda ochilgan maktabga "Muzaffariya" nomi beriladi. Qorako'l shahridagi Gasprinskiy maktabi 1925-yilda ham faoliyat ko'rsatib, 5 ta xonasi va 13 derazasi bo'lgan [6. 272].

Turkistonning o'troq hududlaridan farqli ravishda qirg'iz hududlarida ba'zan chodirlarda ham darslar berilgan. Qirg'iz jadid maktablarida dastlabki davrda tojik, o'zbek, Sharqiy Turkistondan va tatar mullalari dars bergan bo'lsalar, keyinchalik qirg'iz muallimlari ham darslar bera boshlaganlar. Bunga 1912-yildan tatarlarning o'lkada ta'lim bilan shug'ullanishlarining taqiqlanishi ham ta'sir ko'rsatgan. Qirg'izlar orasida qadimchilar unchalik katta ta'sirga ega bo'lmaganligi sababli, jadidchilik qirg'izlar orasida tez tarqaldi. 1917-yilga kelganda qirg'iz hududlarida 30 ta atrofida jadid maktabi faoliyat ko'rsatgan. Usuli jadid maktablarida 12 yoshdan 25 yoshgacha bo'lgan o'quvchilarga sinflarga bo'linib ta'lim berilar edi. Yillar davomida bu tipdagi maktablardagi ta'lim dasturlari yangilanib borgan. Jadid maktabi tarafdorlari rus-tuzem maktabida ta'lim olgan yoshlar bilan musobaqalashar, ularning maqsadi amal va maqom ekanligini ta'kidlab, uni tanqid qilishar edi [6. 273].

Shu tariqa Qrimda boshlangan ta'lim islohotchiligi harakati "jadidchilik" deya nom olib, butun musulmon olamiga tarqaldi. Ta'limda boshlangan ushbu islohot keyinchalik, ma'rifatparvarlikdan siyosiy mustaqillikka erishish uchun g'oyalar tarqatuvchi manbaga aylandi.

XULOSA

Jadidchilik tamal toshlari otilgan dastlabki davrda oqim tarafdorlari jadidchi emas, balki "islohotchi" deb atalganlar. Ularga nisbatan an'anaviy tizim tarafdorlari "begona ko'z" bilan qaramaganlar. Hatto, ularga nisbatan "taraqqiyotchi" atamasini qo'llangan. Keyinchalik tomonlar o'rtasidagi g'oyaviy qarama-qarshilik ular orasidagi qat'iy muxolifatni vujudga keltirib, bir-birlariga nisbatan qarama-qarshi mavqeni egallaganlar.

Dastlabki jadidlar ta'lim tizimini isloh qilishda inqilobiy yo'lni afzal ko'rganlar. Buning mohiyati shuki, mavjud an'anaviy ta'lim tizimini butunlay sindirib, oldinga qo'yilgan maqsad yangi, yosh avlod tomonidan amalga oshirilishi kerak. Chunki mavjud ta'lim tizimida faoliyat olib borayotgan shaxslar uchun yangi tizim shartlari qabul qilinmaydi. Bu esa bu borada qo'yilgan maqsadga yetishish uchun to'siq hisoblangan.

Turkistondagi aholi orasida ko'chmanchi aholi uchun yangi usul maktablarini yoyish nisbatan qulayroq. Chunki, ko'chmanchilar orasida diniy mutaasiblik nisbatan kuchli emasdi.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Бендриков К.Е. Очерки по истории народного образования в Туркестане (1865 – 1924 годы). – Москва, 1960. – 510 с.
2. Остроумов Н. Мусульманские мактабы и русско-туземные школы в Туркестанском крае // Кауфманский сборник. Изданный в память 25 лет истекших со дня смерти покорителя и устроителя Туркестанского края. Генерал-адъютанта К.П. фон Кауфмана. – Москва, 1910. 246 с.
3. Тазминий Г. Жадиализм: новый взгляд на современное положение исламского общества в Иране // Россия. Мусульманский мир. 2003. №3. –С. 150-165.
4. Қосимов Б. Миллий уйғониш: жасорат, маърифат, фидойилик. – Тошкент: Маънавият, 2002. – 400 б.
5. Ahmet Kanlıdere. Sovyet Türk Tarih Yazıcılığında Rusya Müslümanlarının Düşünce Tarihi // Türkiye Araştırmaları Literatür Dergisi, Cilt 2, Sayı 1, 2004, - S. 149-181.
6. Güldona Murzakulova. İsmail Gaspıralı ve Kırgızistan'da Ceditçilik Hareketi // Modern Türklük Araştırmaları Dergisi. Aralık 2014, Cilt 11, Sayı 4. – S. 268-283.
7. Kishimjan ESHENKULOVA. Modern bilimlerin Türkistan'a girişi (1800 - 1017) // Felsefe İm dalı boyunca doktora tezi. – İstanbul, 2007. – 242 s.
8. Yüzeyev A. Ceditçilik İdeolojisi: Tarihi ve Bugünü. İsmail Bey Gaspıralı İçin, ed. H.Kırımlı, - Ankara. 2004. – 278 s.

Акбаров Р. Х.

Заведующий кафедры «Всемирная история», PhD

Ферганский государственный университет

akbarovravshan04@mail.com

УСЛОВИЯ ВОЗНИКНОВЕНИЯ СЕТИ ДЖАДИДСКИХ ШКОЛ В ТУРКЕСТАНЕ

АННОТАЦИЯ

В статье анализируются такие вопросы, как возникновение просветительства как пути преодоления отсталости в результате включения Средней Азии в российскую колониальную систему, метод "усули джадид," разработанный Исмаилом Гаспринским, сущность джадидизма, методика обучения в новометодных школах, отношение российского правительства к джадидским школам, возникновение новометодных школ в Средней Азии, появление системы джадидских школ среди кочевых и оседлых народов.

Ключевые слова: колониальная система, джадидизм, новометодная школа, реформа, кадимисты, метод обучения, учебник, национальное самосознание, пропаганда.

Akbarov R. X.

Head of the department of «World history»., PhD

Fergana state university

akbarovravshan04@mail.com

CONDITIONS FOR THE EMERGENCE OF THE JADID SCHOOL NETWORK IN TURKESTAN

ABSTRACT

This article examines the emergence of enlightenment as a means to overcome backwardness following Central Asia's incorporation into the Russian colonial system. It analyzes the "usuli jadid" method developed by Ismail Gasprinsky, the essence of Jadidism, teaching methodologies in new-method schools, the Russian government's stance towards Jadidist schools, the rise of new-method schools in Central Asia, and the development of a Jadidist school system among both nomadic and settled populations.

Keywords: colonial system, Jadidism, new-method school, reform, Qadimists, teaching method, textbook, national self-consciousness, propaganda.